HADISLARDA EHSON TUSHUNCHASINING YORITILISHI

ПОНЯТИЕ ЭХСАНЕ В ХАДИСАХ

THE CONCEPT OF CHARITY IN HADITH

USMANOV Mahammadsidiq Abdumannonovich,
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Head of the "Treasury of Sources" Department.
mahammadsidiqusman@gmail.com
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islom dinida madh etilgan go'zal xulqlardan biri "Ehson" tushunchasi xususida so'z yuritilib, uning ma'nosi ehson haqida aytilgan mashhur hadis namunalari orqali bayon etiladi. "Ehson" so'zining ma'no-mazmuni eng ishonchli manbalardan joy olgan sahih va mashhur hadislar orqali yoritib berilgan. Bundan tashqari, ehson dinning eng oliy martaba va darajalardan biri sanalishi ochib berilgan hamda ehson ta'rifi, ehson va islom, ehson va ota-onaga yaxshilik qilish, ehson va ona, ehson va qiz tarbiyasi, ehson va ayollar huquqi, ehson va qo'shnilar, ehson va hayvonlar, ehson va yaxshi gumon kabi jamiyatdagi ma'naviy muhitni barqorlashtiruvchi, undagi insonlarni o'zaro bir-biriga munosabatni tartibga soluvchi alohida dolzarb mavzularga bo'lib maqola shakllantirilgan.*

Maqolada shuningdek, barcha go'zal xulqlar va yuksak darajalar o'z kuchini ehsondan olishi haqida so'z yuritilgan. Ayniqsa, uning ma'naviy hayotimizda tutgan o'rni naqadar muhim ekanligi mo'tamad hadis manbalar asosida yoritilgan. Islom dinining Qur'oni karimdan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi asosiy manbasi – hadisi shariflarda ehson mavzusiga alohida e'tibor qaratilgan. Zero, hadisi shariflarda odob-axloq mavzulari ham chuqur o'rin olgan. Ehson haqidagi nabaviy hadislarnini sharhlashda islom olamida mashhur muhaddis ulamolar, shu bilan bir qatorda, Imom Buxoriy, Abu Iso Muhammad Termiziy va Mulla Ali Qoriy kabi yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar merosida keng o'rin olganligi tadqiq qilingan.

Ushbu maqolada shu bilan birga, ehsonning bosqichlari, darajalari keltirilib inson zohirini ham, botinini ham tuzatishi lozimligi, tashqi ko'rinish ichki olamga muvofiq bo'lmasa, sitrki ko'rinishlar insonlarni aldab qo'yishi va xunuk holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi: ishonchni su'iste'mol qilish, tinchlikni himoya qilish, Yer yuzini obod qilish va tabiatni muhofaza qilish ham ehsondanligi, imonning yarmini shukur tashkil qilsa, qolgan yarmi sabrdan iboratligi, ixlos ehsonning eng muhim sohasi hisoblanishi takidlangan.

Kalit so'zlar: ***"****Ehson", "Sahih hadis", "Muroqaba" , "Mushohada", "Imom Navaviy", "Sunan Ibn Moja", "Hadis to'plami", "al-Adab al-mufrad".*

Аннотация. *В этой статье говорится об эхсане, одном из прекрасных качеств, восхваляемых в исламской религии, и его значение объясняется на примерах известных хадисов о благотворительности, пожертвованиях. Значение слова «эхсан» объясняется посредством достоверных и популярных хадисов из самых достоверных источников. Кроме того, благотворительность считается одним из высших рангов и ступеней религии, также есть множество фетв на конкретные темы, стабилизирующие нравственную среду в обществе и регулирующие отношения между людьми в нем, такие, как имущество, определение благотворительности, пожертвований и ислама, благотворительности и добрых дел родителям, благотворительности по отношению к матери, благотворительности и воспитания дочери, благотворительности и прав женщин, благотворительности и брака благотворительности и животных, благотворительности и доброй воли. Отмечается, что все хорошие качества и высокие уровни нравственности черпают свою силу в благотворительности. В частности, на основании достоверных источников — хадисов — была подчеркнута важность его роли в нашей духовной жизни. Основным источником ислама, уступающим только Священному Корану, являются хадисы, в которых теме благотворительности уделяется особое внимание. В конце концов, темы этики глубоко укоренены в хадисах. Комментируя хадисы Набави о благотворительности, было указано, что она занимает большое место в наследии учёных, выросших в нашей стране, таких как Имам Бухари, Абу Исо Мухаммад Термизи и Мулла Али Кари. В то же время в данной статье даны этапы и уровни благотворительности, и необходимо корректировать как внешние, так и внутренние стороны человека, если внешний облик не соответствует внутреннему миру, такие проявления могут обманывать людей и создавать безобразные ситуации (например, злоупотребление доверием), а защита мира, улучшение земли и защита природы — это тоже человеколюбие, половина веры — благодарность, другая половина — терпение. В работе подчеркивается, что эхсан считается важнейшей сферой благотворительности.*

Ключевые слова: *"Благодеяние", **"**Достоверные хадисы", "Наблюдение" , "Созерцание", **"**Имам Навави**"**, **"**Сунан ибн Моджа", "Сборников хадисов", "аль-Адаб аль-муфрад"*

Abstract. *This article explores one of the noble qualities highly regarded in Islam — the concept of Ihsan. It elaborates on the meaning of Ihsan through the analysis of well-known and authentic hadiths. The semantic dimensions of the term are examined using reliable sources, highlighting its significance in the spiritual and ethical framework of Islamic teachings. In addition, the article highlights that Ihsan is considered one of the highest ranks and statuses in religion. It provides a detailed explanation of the concept of Ihsan, addressing its definition and exploring a range of socially and spiritually significant themes such as Ihsan and Islam, Ihsan and kindness to parents, Ihsan and mothers, Ihsan and the upbringing of daughters, Ihsan and women's rights, Ihsan and neighbors, Ihsan and animals, as well as Ihsan and having*

good assumptions about others. These topics are presented as vital components that contribute to the stabilization of the moral environment in society and help regulate interpersonal relations within it.

The article also discusses how all noble qualities and elevated spiritual ranks derive their strength from Ihsan. Particular emphasis is placed on the significance of Ihsan in our spiritual life, as demonstrated through reliable hadith sources. In the hadith literature—the second most important source in Islam after the Holy Qur'an- special attention is given to the concept of Ihsan. Indeed, ethical and moral teachings occupy a prominent place in the Hadith. The article examines how prophetic sayings about Ihsan have been interpreted by renowned Islamic scholars. It also explores the legacy of great hadith scholars from our region, including Imam Bukhari, Abu Isa Muhammad al-Tirmidhi, and Mulla Ali al-Qari, who have all devoted considerable attention to the theme of Ihsan in their works.

This article also outlines the stages and degrees of Ihsan, emphasizing the necessity for a person to purify both their outward appearance and inner self. It is noted that if a person's external appearance does not align with their inner world, it may lead to deception and the emergence of undesirable behaviors. The misuse of trust, the protection of peace, the development of the Earth, and the preservation of nature are all considered manifestations of Ihsan. Furthermore, the article highlights that gratitude constitutes half of faith, while the other half consists of patience. It also stresses that sincerity (Ikhlas) is regarded as the most crucial domain of Ihsan.

Keywords: *"Charity", "Authentic hadith", "Observation", "Sighting", "Imam Nawawi", "Sunan ibn Moja", "Collections of Hadiths", "al-Adab al-mufrad"*

KIRISH

Alloh taolo bandalarni nafaqat badaniy va zohiriy ibodatlarga, balki qalbiy va botiniy poklikka ham chaqiradi. Bandaning qalb kechinmalari va botiniy hissiyotlarini ehson muolaja qiladi. Shu bois ehson islom dinining mag'zi sanaladi. Zero, oxiratdagi najot faqat sog'lom qalb egalariga nasib etadi: "U kunda na mol-dunyo va na farzandlar foyda bermas, Faqat Alloh huzuriga sog'lom dil bilan kelgan kishilargagina (foyda berur)" *("Shuaro" surasi, 88-89-oyatlar).*

Rasulullоh (s.a.v.): "Alloh taolo sizlarning jasad va suratlaringizga qaramaydi. Balki U sizlarning qalblaringizga qaraydi", deb barmoqlari bilan ko'ksilariga ishora qilganlar. Boshqa hadisda "Qalblaringiz va amallaringizga qaraydi", deyilgan *(Muslim ibn Hajjoj, 2005:1174)*. Mazkur hadislar ham ehsonning ahamiyatini naqadar muhim ekanini bayon qiladi. Yuqoridagi hadis yuzasidan Shayxulislom Muhammad Taqiy Usmoniy shunday xulosa qiladi: "Hadisning ma'nosi shuki, Alloh taolo bandalarning faqat go'zal tanasi va suratlariga e'tibor bermaydi. Balki ularning zohiriy amallari bilan bir qatorda botiniy amallariga ham nazar soladi. Chunki hadisdagi "qalblaringiz" deganda botiniy, "amallaringiz" deganda esa zohiriy amallar nazarda tutilgan. Shu bois Alloh taolo insondan faqat qalb tozaligini talab qiladi, deyish noto'g'ri. Mazkur hadislarni noto'g'ri tushunish oqibatida "Qalbim toza bo'lsa bo'ldi", deb zohiran turli gunoh va ma'siyatlarga qo'l urayotganlar ham yo'q emas. Bu kabi fikr va o'ylardan yiroq bo'lish zarur. Chunki islom shariati zohiriy amallarni to'g'rilashga alohida e'tibor qaratadi. Zero, zohiriy amallarning buzilishi qalbning buzilishiga bog'liqdir. Ya'ni, zohiriy amallarning noqisligi qalbning kirligidan darak beradi. Xulosa shuki, kimning amali go'zal bo'lsa, Alloh uning jismining zaifligi va suratining xunukligiga qaramay ulkan savoblarni beradi. Kimning amali yomon bo'lsa, uning jismi baquvvat va surati chiroyli bo'lsa ham, Alloh taolo unga savob bermaydi"*(Muhammad Taqiy Usmoniy, 2006:184-185)*.

Guvohi bo'linganidek, islom ta'limotlarida ehsonning o'rni beqiyos. Lekin "Ehson deganda nimani tushunish lozim? Uning ma'nosi, turlari va foydalari bormi? Qur'on va hadislarda ehson va uning ma'nolari haqida nima deyilgan?" kabi savollar tug'ilishi tabiiy, albatta. Hadisi sharifлar islom dinining ikkinchi asl manbasi sanalib, Qur'oni karimning sharhi va izohi sifatida talqin qilinadi. Rasulullоh (s.a.v.) o'z hadislarida ehson va u bilan bog'liq turli axloqiy masalalarni bayon qilib berganlar. Quyida ehsonga oid eng sahih va mashhur hadislarning ayrimlari haqida to'xtalib o'tiladi.

USLUBLAR

Ushbu maqolada hadis ilmi olimlarining mashhur asarlarida keltirilgan sahih hadislar orqali ehson ma'nolarini ilmiy tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, manbaviy tahlil kabi tadqiqot metodlaridan foydalangan holda tahlil etildi. Adabiyotlarning lotincha transliteratsiyasi DIN 31635 (Nemis standartlash instituti) qoidalari asosida keltirildi.

TAHLIL

Ehson ta'rifi. Ehson haqida aytilgan hadislarning eng mashhuri Rasulullоh (s.a.v.) va Jabroil (a.s.) orasida bo'lib o'tgan suhbatdir. Mazkur hadisning Umar va Abu Hurayra (r.a.) tomonidan rivoyat qilingan ikki xil shakli mavjud. Quyida Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan shaklini keltiramiz: "Bir kuni Rasulullоh (s.a.v.) ko'pchilik bilan suhbatlashib turgan edilar. Bir kishi U zotning huzurlariga kelib, salom bergach: "Imon nima?", deb so'radi. Rasullloh (s.a.v.): "Imon Allohga, Uning farishtalariga, (Qiyomatda) Allohga yo'liqishga,

Allohning payg‘ambarlariga va (o‘lgandan so‘ng) qayta tirilshga ishonishingdir”, dedilar. Mazkur kishi: “Islom nima?”, deb so‘radi. Rasulullоh (s.a.v.): “Allohga shirk keltirmasdan ibodat qilmog‘ing, (besh vaqt) namozni ado qilmog‘ing, farz zakotni bermog‘ing, Ramazon ro‘zasini tutmog‘ingdir”, dedilar. U kishi: “Ehson nima?”, dedi. Rasulullоh (s.a.v.): “Allohga Uni ko‘rib turgandek ibodat qilmog‘ing. Agar sen ko‘rmayotgan bo‘lsang, U seni ko‘rib turadi”, dedilar. Mazkur kishi: “Qiyomat qachon?”, deb so‘radi. Rasulullоh (s.a.v.): “So‘ralayotgan kishi so‘raguvchidan ortiq bilmaydi, biroq alomatlarini aytib beray: xotinlar o‘z egalarini tug‘adigan bo‘lganda, tuyaboquvchilar baland-baland imorat sola boshlaganda. Beshta (g‘aybiy) narsa haqida faqat Alloh biladi”, dedilar. So‘ng quyidagi oyatni tilovat qildilar: **“Darhaqiqat, Allohning huzuridagina qiyomat** (qachon bo‘lishi to‘g‘risida) **bilim bordir ...”** (“Luqmon” surasi, 34-oyat). Keyin mazkur kishi qaytib ketdi. Rasulullоh (s.a.v.): “Uni qaytaringlar”, dedilar. Sahobalar uni topa olmadilar. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): “Bu Jabroil (a.s.)dir, odamlarga dinini o‘rgatgani kelgan”, dedilar. Imom Buxoriy (a.r.) shunday qo‘shimcha qiladi: “Rasulullоh (s.a.v.) yuqoridagi hamma narsani imondan deb hisobladilar” *(Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, 1999:12; Muslim ibn Hajjoj, 2008:18)*.

Ushbu hadisda ehsonning ta’rifi aniq bayon qilingan: “Allohga Uni ko‘rib turgandek ibodat qilmog‘ing. Agar sen ko‘rmayotgan bo‘lsang, U seni ko‘rib turadi”. Rasulullоh (s.a.v.) bu so‘zlari bilan ehsonning ikki maqomiga ishora qilganlar. Ya’ni, ehsonning ikki maqomi mavjud:

1. Mushohada maqomi. Bu holatda banda Allohni ko‘rib turgandek holatga tusha oladi.
2. Muroqaba maqomi. Bu holatda banda Allohning kuzatib turganini doim yodda saqlaydi.

Mazkur ikki holat Allohni tanish va Undan qo‘rqishning samarasi hisoblanadi. Zero, Ammora ibn Qa’qa’ (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda “Allohni ko‘rib turgandek qo‘rqmog‘ing” jumlasi ishlatilgan *(Shayx Shibbir Ahmad Usmoniy, 2006:334)*.

Imom Navaviy (a.r.) mazkur hadisni shunday sharhlaydi: “Bu hadis Rasulullоh (s.a.v.)ga Alloh tomonidan berilgan ta’limotlarning barchasini o‘zida qamrab olgan. Tasavvur qilsakki, biror kishi huddi Alloh taoloni ko‘rib turgandek ibodat qilsa, xushu’, xuzu’ va xolis niyatni qudrati yetganicha aslo tark qilmaydi hamda ichi-yu tashini ibodatni eng go‘zal tarzda mukammal ado qilishga safarbar etadi. Rasulullоh (s.a.v.): “Allohga huddi Uni ko‘rib turgan holatingdagidek ibodat qilgin!”, deganlar. Banda Allohning doim kuzatib turishini tushunib yetgandagina mazkur holatda ibodat qilish baxtiga muyassar bo‘ladi. Alloh kuzatib turgani uchun ham banda hech qanday kamchilikka yo‘l qo‘ymaydi. Banda Allohni ko‘rmasa-da, lekin shu ma’no mavjuddir, ya’ni Alloh uni doim kuzatib turadi. Yuqoridagi hadisning maqsadi ibodatda xushu’ va xuzu’ bilan ixlos qilish va muroqaba (Alloh bandani doim kuzatib turishi)ga targ‘ibdir. Shu bois olimlar solihlar bilan hammajlis bo‘lishni mustahab sanaganlar. Chunki inson solihlarga bo‘lgan hurmati va hayosi tufayli turli ayb-nuqsonlardan o‘zini tiyadi. Tashida-yu ichida Allohning kuzatib turganligini his qiladigan banda qanday holatda bo‘lishini tasavvur qilavering!” *(Muhyiddin Navaviy, 2000:141)*.

Qozi Iyoz (a.r.) shunday degan: “Bu hadis ibodatga oid vazifalarning barcha zohiriy va botiniy ko‘rinishlarini o‘z ichiga oladi. Imon ko‘rinishlari, a’zolar amallari, qalb ixlosi va amallar ofatidan saqlanish ushbu hadisda o‘z ifodasini topgan. Hatto ushbu hadis barcha shar’iy ilmlar manbasi va ildizi sanaladi. Men mazkur hadis va unda zikr qilingan uch atama bo‘yicha “Al-maqosid al-hison fima yalzamu al-insan” nomli kitob yozganman. Zero, farz-vojib, sunnat amallar, odob-axloq masalalari, harom va makruh amallar ushubu uch atamada o‘z ifodasini topgan”*(Badruddin Ayniy, 2009:149; Muhyiddin Navaviy, 2000:141-142)*.

Shayx Shibbir Ahmad Usmoniy (a.r.)ning yozishicha, mazkur hadisda ehsonning uchta maqomi – darajasi bayon qilingan:

1. Bajarish lozim bo‘lgan ibodatni zimmadan soqit qilish maqsadida uning barcha shart va ruknlarini mukammal ado etish.
2. Ibodatni birinchi bandda keltirilgan tarzda ado etish bilan birga mukoshafa dengiziga g‘arq bo‘lish, ya’ni Allohni ko‘rib turgandek ibodat qilish. Bu Rasulullоh (s.a.v.)ning maqomlari! U zot (s.a.v.) toatdan lazzat olganlari, ibodatdan rohatlanganlari va kashf nurlariga burkanib, Allohdan o‘zgaga e’tibor qaratmaganlari uchun ham: “Ko‘zimning quvonchi namozda qilindi!”, deganlar Bu Mahbubning qalbdagi barcha hujayralarga joylashuvi samarasi! Bu qalb, ruh va nafsning faqat Alloh bilan mashg‘ul bo‘lishi natijasi!”
3. Ibodatni birinchi bandda keltirilgan tarzda ado etish bilan birga bandada Alloh doim kuzatib turishini his qilish tuyg‘usi ustun bo‘ladi. Bu muroqaba maqomi deyiladi. Bu maqom mukoshafa (Allohni ko‘rib turgandek ibodat qilish) maqomidan pastroqda turadi. Chunki hadisdagi “Agar sen Allohni ko‘rmasang”, degan jumla bunga dalolat qiladi. Ya’ni, mazkur jumla “Agar mushohada maqomiga yeta olmasang, muroqaba maqomida ibodat qilgin”, degan ma’noni anglatadi.

Mazkur maqomlar ehsonning darajalari sanaladi. Ehsonning birinchi maqomi ibodatning durustligi uchun shart sanaladi. Qolgan ikki maqom esa xoslarning darajalari bo‘lib, boshqalar uchun uzrli sanaladi” *(Shayx Shibbir Ahmad Usmoniy, 2006:334)*.

Imom Qurtubiy (a.r.) shunday degan: “Bu hadis hadislarning “onasi”dir! Chunki u hadis ilmining umumiy jihatlarini o‘zi ichiga olgan”*(Badruddin Ayniy, 2009:452)*. Tayyibiy (a.r.) esa shunday yozadi: “Shu bois (mazkur hadis hadislarning onasi bo‘lgani uchun) Imom Bag‘aviy (a.r.) Qur’onga muvofiq holda o‘zining “al-Masobih” va “Sharh as-sunna” asarlarini mazkur hadis bilan boshlagan. Chunki Qur’on suralarning “onasi” bo‘lmish “Fotiha” surasi bilan boshlangan” *(Shayx Shibbir Ahmad Usmoniy, 2006:335)*.

Ehson va islom. Abu Sa’id Xudriy (r.a.) Rasulullоh (s.a.v.)ning shunday deganlarini eshitgan: “Banda musulmon bo‘lsa va uning islomi go‘zal bo‘lsa, Alloh u qilgan barcha yomonliklarni kafforat qiladi. Undan so‘ng qasos bo‘ladi. Ya’ni, bir yaxshilik o‘n barobardan yetti yuz barobargacha ko‘paytirib beriladi. Yomonlik esa o‘z mislicha qoladi. Lekin Alloh u (yomonlik)ni kechirib yuborishi mumkin” *(Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, 1999:10; Muslim ibn Hajjoj, 2005:1168)*.

Badriddin Ayniy (a.r.) mazkur hadisni shundan izohlaydi: “Islomi go‘zal bo‘lsa” jumlasi “islomni zohirida-yu botinida birdek qabul qilsa” degan ma’noni anglatadi *(Badruddin Ayniy, 2009:393)*. Ushbu hadisda ehsonning imon va islom bilan chambar-chas bog‘liqligi yana bir bor o‘z ifodasini topgan. Bandaning musulmon bo‘lishidan oldingi gunohlari kafforat bo‘lishi va islomni qabul qilgandan so‘ng bajargan yaxshi amallari o‘n hatto yetti yuz barobargacha ko‘payishida ehsonning o‘rni katta. Hadisda islom dinini qabul qilishning o‘zi ehson deb atalgan. Darhaqiqat, insoniyatning eng ulug‘ ehsoni, shubhasiz, musulmon bo‘lishdir. Zero, islom va imonsiz qilingan ezgu amallar qanchalik ko‘p bo‘lmasin, oxiratda aslo foyda bermaydi. Dunyoda qilingan amallarning oxiratda foyda berishi uchun eng avvalo islomni qabul qilmoq, ya’ni Allohning yagonaligi hamda Muhammad (s.a.v.)ning oxirgi payg‘ambar ekaniga imon keltirmoq darkor. Bu ehson sari qo‘yilgan ilk qadam, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek, mazkur hadisda xorijiylarning “gunoh qilganlar kofir sanaladi, ular jahannamda abadiy qoladilar”, degan botil aqidalariga raddiya bor. Chunki hadisdagi “Lekin Alloh u (yomonlik)ni kechirib yuborishi mumkin” jumlasi musulmon gunohkorlarning oqibati Allohning xohish irodasiga bog‘liq ekaniga ishora bor. Alloh istasa ularni afv etadi, istasa azoblaydi. Lekin musulmonlar jahannamda abadiy qolmaydilar *(Badruddin Ayniy, 2009:396-397)*

Boshqa bir hadisda quyidagilarni o‘qish mumkin: “Abdulloh Ibn Mas’ud (r.a.) shunday rivoyat qiladi: “Bir kishi shunday savol berdi: “Yo Rasulullоh (s.a.v.)! Johiliyat davrida qilgan ishlarimiz uchun jazolanamizmi?” Shunda Rasulullоh (s.a.v.) quyidagicha javob berdilar: “Kim islomda (musulmon bo‘lgandan so‘ng) ehson qilsa (islom dini talablarini chiroyli tarzda bajarsa), johiliyatda qilgan amallari uchun jazolanmaydi. Kim islomda yomonlik qilsa, avvalgi-yu oxirgi (johiliyat va islomda qilgan yomon) amallari uchun jazolanadi” *(Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, 1999:1992; Muslim ibn Hajjoj, 2005:105)*.

Islomning rahmat dini ekani ushbu hadisda yana bir bor ta’kidlangan. Islom o‘zidan oldingi barcha gunoh va yomonliklarni yuvib tashlaydi. Lekin islomni go‘zal tarzda qabul qilmoq shart. Ya’ni, islomni ixlos bilan qabul qilish darkor. Agar banda islomni qabul qilgach, yomonlikda davom etsa, musulmon bo‘lishidan oldingi va keyingi gunohlari uchun jazolanadi. Banda islomni qabul qilgandan so‘ng qilgan gunohlari uchun azoblanadi, musulmon bo‘lishidan oldingi gunohlari uchun quyidagicha tanbeh eshitadi: “Musulmon bo‘lishingdan oldin shu-shu gunohlarni qilganmisan? Islom dinida bu ishlar gunoh ekanini bilmaganmiding?!” Hadisdagi “yomonlik qilsa” iborasi kufr keltirsa, dindan qaytsa, degan ma’nolarni anglatadi *(Shayx Shibbir Ahmad Usmoniy, 2006:83)*.

Quyidagi hadis ham shu ma’nolarni ta’kidlaydi: Abu Hurayra (r.a.) shunday rivoyat qiladi: “Hech bir (jannatiy) odam, agar gunoh (shirk va kufr) qilganida do‘zaxdagi joyi qanday bo‘lishi ko‘rsatilmasdan oldin jannatga kirmaydi. Uning shukri yanada ziyoda bo‘lishi uchun shunday qilinadi. Hech bir (do‘zaxiy) odam, agar ehson qilganida jannatdagi joyi qanday bo‘lishi ko‘rsatilmasdan turib do‘zaxga kirmaydi. Uning hasrat-nadomati yanada ko‘proq bo‘lishi uchun shunday qilinadi” *(Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, 1999:1136).*

Jannat Alloh taolo tomonidan tayyorlab qo‘yilgan eng oliy mukofot sanaladi. Mazkur hadisda bu mukofotga muhsinlar sazovor bo‘lishiga ishora qilinmoqda. Ushbu hadisdagi ehsondan murod yaxshi amal, ya’ni islomdir. Zero, insonni do‘zaxda abadiy qolishdan qutqaradigan yagona narsa – bu islom dini! Imonidan voz kechganlar va islom dinidan yuz o‘girganlar bunday mukofotga erisha olmaydilar. Ularga jahannamga uloqtirilishdan oldin jannatdagi bir so‘lim go‘sha ko‘rsatilib: “Agar ehson qilganingda shu joyda nozi ne’matlardan bahramand bo‘lar eding”, deyiladi. Natijada uning hasrat-nadomati yanada ortadi *(Badruddin Ayniy, 2009: 198-199).*

Ming yillardan beri islom diniga e’tiqod qilib kelayotgan xalqimiz orasida missionerlik illati avj olib borayotgan bir vaziyatda mazkur hadisning ahamiyati yanada ta’kidliroq tus olishi tabiiy. Boylik, mansab yoki shu kabi moddiy manfaatlar uchun dinidan voz kechayotgan, e’tiqodini pulga sotayotgan va islomdan yuz o‘girayotgan johil qimsalar tasviri aynan shu hadisda o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, Rasulullоh (s.a.v.) bu kabi ofatlardan ogohlantirib shunday deganlar: “Qorong‘u tunning bo‘lagiga o‘xshash fitna chiqishidan oldin yaxshi

amallarni qilib olishga shoshilinglar! Fitna vaqtida kishi mo‘min holda tong ottirib, mo‘min bo‘lmagan holda tunni qarshi oladi yoki mo‘min holda tunab, mo‘min bo‘lmagan holda tong ottiradi. U o‘z dinini dunyo matosiga sotadi” *(Muhyiddin Navaviy, 2000: 114-115).*

Ehson va ota-onaga yaxshilik qilish. Ota-onaga yaxshilik qilish ehsonning eng ko‘zga ko‘ringan sohasi sanaladi. Abdulloh ibn Amr (r.a.) Rasulullоh (s.a.v.) dan shunday rivoyat keltiradi: “Bir kishi Rasulullоh (s.a.v.) huzurlariga kelib: “Hijrat va jihod qilish uchun Sizga bay’at qilaman. Chunki Alloh menga ajr-savob berishini istayman”, dedi. Rasulullоh (s.a.v.): “Ota-onangdan birortasi tirikmi?”, deb so‘radilar. U kishi: “Ha, ikkalasi ham hayot”, dedi. Rasulullоh (s.a.v.): “Allohdan ajr-savob istaysanmi?”, dedilar. U: “Ha”, deb javob qaytardi. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): “Unday bo‘lsa, ota-onagning oldiga qaytib bor va ularga ehson bilan muomala qilgin!”, dedilar” *(Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, 1999:1045-1046; Muslim ibn Hajjoj, 2005:1168)*.

Hasan Basriy (a.r.)dan: “Ota-onaga yaxshilik qilish nima?”, deb so‘rashdi. U: “Mulkingni ota-onang uchun sarflashing va gunoh-ma’siyat bo‘lmagan o‘rinlarda ularning buyruqlariga itoat qilshingdir”, deb javob berdi *(Badruddin Ayniy, 2009: 129).*

Imom Navaiy (a.r.) shunday yozadi: “Bu va shunga o‘xshash hadislar ota-onaga yaxshilik qilishning fazilati naqadar ulug‘ ekaniga dalolat qiladi. Ota-onaga yaxshilik qilish jihoddan ustun turadi. Olimar jihod uchun ota-onaning izni shartdir, deydilar. Barcha olimlar ota-onaga yaxshilik qilish farz ekani va ularga oq bo‘lish esa katta gunohlardan ekaniga ijmo qilganlar” *(Muhyiddin Navaviy, 2000: 84).*

Darhaqiqat, ota-onaning izni va roziligi jihoddan ustun turadi. Zero, boshqa bir hadisda ham ota-onaga yaxshilik qilish jihoddan ustun qo‘yilgan *(Badruddin Ayniy, 2009:127).* Jihodning asosiy shartlaridan biri ota-onaning iznidir. Ularning iznisiz jang qilish bilan hech qanday savobga erishib bo‘lmaydi. Aksincha, farzandlar ota-onaga oq bo‘lishdek og‘ir gunohga qo‘l urgan bo‘ladilar. Hozirgi kunda ota-onalarini zor yig‘latib, roziligini olmay “jihod” deb nomlanayotgan fitnaga ketayogan yoshlar bu hadisni biladilarmi?! Ular puch da’volarga aldanib, jihoddek ulug‘ ibodatni emas, balki ota-onaga oq bo‘lishdek og‘ir gunohni amalga oshirayotganilaridan xabarlari bormi?!

Shuningdek, ota-onaga ehson qilish, ularga yaxshilik ulashish va ularning roziligini olish insonning rizqiga baraka berib, umrini uzaytiradi. Abu Muso Madiniy (a.r.) o‘zining “Kitab at-targ‘ib va at-tarhib” asarida Abu Hurayra (r.a.)dan quyidagi marfu’ hadisni rivoyat qiladi: “Ota-onaga yaxshilik qilish umrni ziyoda qiladi, yolg‘on esa rizqni kamaytiradi. Ota-onaga yaxshilik qilish silai rahmning eng buyugidir”. Hadisdagi “yolg‘on” so‘zini izohidan ota-onalariga muqaddas din maqsadlari yo‘lida harakat qilayapman deb, asli dunyoviy maqsadlar uchun yurtidan ketayotgan insonlarning soxta niyatlarini tushunishimiz mumkin. Shuningdek, rizqining kamayishi ham nafaqat yemoq-ichmoq taqchilligi, balki umrining besamar, befoyda va yomon oqibat bilan tugashiga sabab bo‘ladi. Ibn Abbos va Savbon (r.a.)lardan quyidagi musnad hadis rivoyat qilingan: “Tavrotda shunday yozuvlar bor: “Ey odam farzandi! Rabbingga taqvo qil! Ota-onangga yaxshilik qil! Qarindoshlik rishtalarini bog‘la! Shunda umring uzayadi!” Savbon (r.a.)dan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda quyidagilarni o‘qish mumkin: “Ota-onaga yaxshilik qilishdan boshqa narsa umrni uzaytira va xayrli qila olmaydi hamda qarindoshlik rishtalarini bog‘lashdan boshqa narsa rizqni ko‘paytira olmaydi” *(Badruddin Ayniy, 2009:144).* Uzoq umr ko‘rish va to‘kin-sochin hayot kechirishni kim ham istamaydi?! Insonlar kunu tun tinmay mehnat qilib, boylik orttirish va oilasini farovon hayot kechirishi uchun harakat qiladilar. Mehnat qilish va kasb bilan shug‘illanib, haloldan boylik orttirish va oilaga infoq qilish yaxshi amal, albatta. Lekin ba’zida mazkur yumushlar bilan band bo‘lib, ota-onaning holidan xabar olishni unutadilar, ularga yaxshilik qilish, duolarini olish va roziliklarini istash kabi ulug‘ savobli ishlardan bebahra qoladilar. Hatto muhim ishlar bilan mashg‘ulligini ro‘kach qilib, ota-onasini ranjitadiganlar ham yo‘q emas. Aslida rizqimizning barakasi ota-onamiz qo‘lida! Ularning roziligi va duosisiz ishlarimiz yurishmaydi! Nafaqat rizqimiz, balki sog‘ligimiz va umrimiz ota-onalarning rizoligi bilan bog‘liq!

Ehson va ona. Alloh va Rasulullоh (s.a.v.)dan so‘ng insonga eng mehribon va mushfiq zot, shubhasiz, onadir. Insonning dunyoga kelishi, ulg‘ayishi, tarbiyasi, deyarli barcha faoliyatini onasiz tasavvur qilish mushkil. Shu bois islom dinida onalarga o‘zgacha e’tibor qaratilgan. Jumladan, Abu Hurayra (r.a.) shunday rivoyat qiladi: “Bir kishi Rasulullоh (s.a.v.)ning huzurlariga keldi va: “Insonlar ichida mening chiroyli muomalam (ehsonim) ga eng haqli zot kim?”, deb so‘radi. Rasulullоh (s.a.v.): “Onang”, dedilar. Mazkur kishi: “Keyin-chi?”, deb so‘radi. Rasulullоh (s.a.v.): “Keyin yana onang”, dedilar. U: “Keyin-chi?”, dedi. Rasulullоh (s.a.v.): “Keyin yana onang”, dedilar. U: “Keyin-chi?”, deb so‘radi. Rasulullоh (s.a.v.) bu safar: “Keyin otang”, deb javob berdilar” *(Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, 1045: 1992; Muslim ibn Hajjoj, 2005:1167)*.

Onaga ehtirom, hurmat va unga yaxshilik qilish haqidagi hadislar juda ko‘p. Jumladan, Imom Buxoriy (a.r.)ning “al-Adab al-mufrad” asarida quyidagi hadis rivoyat qilingan: “Muoviya ibn Hiyda (r.a.): “Yo Rasulullоh (s.a.v.)! Kimga yaxshilik qilay?”, deb so‘radi. Rasulullоh (s.a.v.): “Onangga”, deb javob berdilar”.

Imom Tabaroniy (a.r.): “al-Mu’jam al-avsat” asarida Anas (r.a.)dan shunday hadis rivoyat qilgan: “Bir kishi Rasulullоh (s.a.v.)ning huzurlariga kelib: “Jihod qilishni istayman, lekin bunga qodir emasman”, dedi. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): “Ota-onangdan birortasi tirikmi?”, deb so‘radilar. U: “Onam tirik”, dedi. Rasulullоh (s.a.v.): “Onangga yaxshilik qilish bilan jihod qilgin. Agar shunday qilsang, sen haj, umra va jihod savobiga erishasan”, dedilar. Imom Tabaroniy (a.r.): “al-Mu’jam al-sag‘ir” asarida Barida (r.a.)dan shunday hadis rivoyat qiladi: “Bir kishi Rasulloh (s.a.v.)ning huzurlariga keldi va: “Yo Rasulullоh (s.a.v.)! Men onamni bo‘ynimda ko‘tarib, juda issiq havoda ikki farsax (5544 metr) yo‘l yurdim. (Havo shu darajada issiq ediki) yerga bir bo‘lak go‘sht tashlasangiz, pishar edi. Onamning haqqini ado qildimmi?”, deb so‘radi. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): “Bu qilgan ishing shoyad onangning bir to‘lg‘og‘iga arzisa”, dedilar. Tammom (a.r.) Ibn Abbos (r.a.)dan shunday rivoyat keltiradi: “Bir kishi Rasulullоh (s.a.v.)ning oldilariga kelib: “Agar Allohning izni bilan Makkani fath qilsangiz, Ka’baga borib, ostonasining eng past joyidan o‘pishni o‘zimga nazr qildim”, dedi. Shunda Rasulloh (s.a.v.): “Onangning oyoqlarini o‘p! Shunda nazringni ado qilgan bo‘lasan”, dedilar. Imom Tabaroniy (a.r.): “al-Mu’jam al-avsat” asarida Abdulloh ibn Mas’ud (r.a.) dan shunday hadis rivoyat qilgan: “Bir kishi Rasulullоh (s.a.v.)ning huzurlariga kelib: “Yo Rasulullоh (s.a.v.)! Mening oilam, otam va onam bor. Yaxshilik qilishimga ularning qaysi biri haqliroq”, deb so‘radi. Rasulullоh (s.a.v.): “Onang, otang, opa-singling, aka-ukang, so‘ng ulardan keyingilar, ulardan keyingilar”, deb javob berdilar. Imom Nasoiy va Ibn Moja (a.r.)lar Muoviya ibn Johima (r.a.)dan quyidagi hadisni rivoyat qilganlar: “Men Rasulullоh (s.a.v.)ning huzurlariga borib, shunday dedim: “YoRasulullоh (s.a.v.)! Men Allohning roziligi va oxirat kunidagi savob umidida Siz bilan birga jihod qilmoqchi edim”. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): “Holingga voy! Onang tirikmi?”, deb so‘radilar. Men: “Ha”, dedim. Rasulullоh (s.a.v.): “Ortingga qaytib, onangga yaxshilik qil!”, dedilar. Men boshqa tarafdan kelib, yuqoridagi savolimni berdim. Rasulullоh (s.a.v.): “Ortingga qaytib, onangga yaxshilik qil!”, deb ikkinchi marta takrorladilar. Men uchinchi bor so‘raganimda, Rasulullоh (s.a.v.): “Holingga voy bo‘lsin! Onangning oyog‘ini mahkam ushla! Jannatni hidla!”, dedilar *(Badruddin Ayniy, 2009:129).* Guvohi bo‘lganimizdek, mazkur hadislarda boshqalarga qaraganda onaga ko‘proq ehtirom ko‘rsatish ta’kidlangan.

Mazkur hadisdan ham bugungi kundagi turli xil tushunmovchiliklarga sabab bo‘layotgan “jihod” masalasining aniq shar’iy dalillari oydinlashadi. Rasulullоh (s.a.v.) uch bora qaytarib, oilasi va ota-onasining xizmatini qilishga buyurishlari bejiz emas edi. Hozirda Suriya va Iroq o‘lkasida sodir bo‘layotgan mudhish hodisalar mazkur hadisning naqadar ahamiyatli ekanini ta’kidlaydi. Alloh taolo o‘zining azaliy va abadiy kalomida ham bandalariga rahm-shafqat bilan bu kabi musibatlarning oldini olgan: **“Ularning ichida Siz bo‘la turib, Alloh ularni azoblovchi emas ...”** (“Anfol” surasi, 33-oyat). Rasulullоh (s.a.v.)ning oramizda bo‘lishlarining ikki shar’iy tushunchasi bor. Biri hayotlik paytlarida jismonan va ta’limotlari bilan. Ikkinchisi vafotlaridan keyin to Qiyomatgacha risolatlari bilan oramizdadirlar. Yuqoridagi kabi hadislar bugun ichimizda Rasulullоh (s.a.v.)ning vasiyat qilishlaridir. Na ota-onasiga, na ulomalariga va na rahbarlariga quloq solmay, Rasulullоh (s.a.v.)ning nasihatlarini pisand qilmay, turli xil puch da’vatlarga ergashayotgan yoshlar oyatda tahdid qilingan azobga mubtalo bo‘lib qolishlari mumkin.

Olimlar “Qaysi biri afzal? Otaga yaxshilik qilishmi yoki onaga?” degan savolga turlicha javob berganlar. Jumladan, Badruddin Ayniy (a.r.) shunday deydi: “Onaga bo‘lgan muhabbat va mehr-shafqat otaga bo‘lgan muhabbatdan kam bo‘lmasligi lozim. Chunki yuqoridagi hadisda Rasulullоh (s.a.v.) onaga yaxshilik qilish kerakligini uch bor takrorlaganlar, otaga yaxshilik qilishni esa bir marta zikr qilganlar. Yaxshilab tafakkur qilinsa, voqelik ham shuni ko‘rsatadiki, homiladorlik, tug‘ish, emizish va tarbiya (chaqaloqni tarbiya qilish) da faqat onaning mehnati yotadi, ota bu ishlarda ishtirok etmaydi. Qolaversa, Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan mazkur hadis onaga itoat qilish otaga bo‘ysunishdan muqaddam keladi. Bu hadis “Otaga itoat qilish muqaddamdir”, deydiganlarga qarshi hujjatdir. Muhosibiy (a.r.) shunday o‘ylaydi: “Onaga yaxshilik qilish va itoat qilish otaga yaxshilik qilish va itoat qilishdan afzal ekanligi olimlar ijmosidir”*(Badruddin Ayniy, 2009:198-129).*

Imom Navaviy (a.r.) ham onaga yaxshilik qilish afzal ekanini ta’kidalagan holda quyidagilarni yozadi: “Mazkur hadis qarindoshlarga yaxshilik qilishni targ‘ib qiladi. Xususan, ona bunga haqliroqdir. So‘ng ota va undan keyin boshqa yaqin qarindoshlar turadi. Olimlar shunday deganlar: “Onaning otadan muqaddam keltirilishi sababi shundaki, ona farzandga bo‘lgan rahm-shafqati, xizmati otaga qaraganda ko‘p bo‘ladi. Shuningdek, ona farzandga homilador bo‘lishi, uni dunyoga keltirishi, emizishi, tarbiyasi, bemorligida parvarish qilishi va boshqa jihatlarda otadan ustun turadi. Qozi Iyoz (a.r.)ning aytishicha, jumhur (aksariyat) olimlar onaning otadan afzal ekanini ta’kidlaganlar. Shuningdek, Imom Molik (a.r.)ga nisbat berilgan ba’zi rivoyatlarda ota va ona bu borada teng ekanligi aytilgan. Menimcha, birinchi (onaga yaxshilik qilish otaga yaxshilik qilishdan muqaddamdir, degan) gap to‘g‘ri.

Chunki mazkur hadislar shu ma'noni ochiq-oydin qo'llab-quvvatlaydi" *(Muhyiddin Navaviy, 2000:83).*

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, yaxshilik va mehribonlik qilishda farzand onaga ko'proq e'tibor qaratishi lozim. Iqtisodiy va moddiy masalalarda otaning huquqi onanikidan ustunroq turadi. Zero, Rasulullоh (s.a.v.) shunday marhamat qilganlar: "Sen ham, mol-davlating ham otangnikidir" *(Abu Abdulloh Ibn Moja. Sunan Ibn Moja, 1998:89)*. Qolaversa, inson chaqaloqlik vaqtida onasi qilgan yaxshilik va xizmatlarni eslay olmaydi. Chunki tafakkur va xotira chaqaloqlarda yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Shu bois bu jihatdan onaga ehtirom ta'kidliroq tus oladi. Ammo keskin va uzil-kesil qaror qabul qilish masalasida otaning o'rni va huquqi muqaddam keladi. Bu borada quyidagi rivoyat mavjud: "Bir kishi Abu Dardo (r.a.) ning oldiga kelib: "Mening xotinim bor. Otam uni taloq qilishga buyurmoqda", dedi. Shunda Abu Dardo (r.a.): "Men Rasulullоh (s.a.v.)ning shunday deganlarini eshitganman: "Ota jannat eshiklarining o'rtasidir. Istasang, bu eshikni zoe qil (qo'ldan chiqar), yoki (istasang) uni saqlab qol", dedilar", dedi. Jannatning bir nechta eshiklari bor. Shubhasiz, ularning eng yaxshisi o'rtadagisidir. Bunday ulug' maqomga ega bo'lish uchun otaga ehson darajasida itoat qilmoq zarur *(Mulla Ali Qoriy, 2001: 147; Hofiz Abul Ulo Muborakfuriy, 2001: 318-319)*. Demak, ota va onaga bo'lgan hurmat va ehson o'z o'rniga qarab turli darajada ado etiladi.

Onaga ehson qilib, bu mo'tabar zotning duosini olish inson uchun eng katta baxt sanaladi. Ona duosi va barakotidan farzand yuksak marralarni zabt eta oladi. Bilil Xavos (a.r.) rivoyat qilgan quyidagi hikoya fikrimiz dalilidir: "Bani Isroil adashib yurgan Tiyh vodiysida edim. Kimsasiz sahroda men tarafga qarab bir piyoda yurib kelayotganiga ko'zim tushdi. Men buni kutmagan edim. Qalbimga: "U Hizr (a.s.) bo'lsa kerak!", degan ilhom keldi. Men undan: "Rostini ayting, kimsiz?", deb so'radim. U: "Men birodaring Hizrman", dedi. Men: "Sizdan bir narsa so'ramoqchiman", dedim. Hizr (a.s.): "So'rayver", dedi. Men: "Imom Shofe'iy (a.r.) haqida nima deysiz?", dedim. Hizr (a.s.): "U abdollardan", dedi. Men: "Imom Ahmad (a.r.) haqida nima deysiz?", dedim. Hizr (a.s.): "U siddiq (o'ta rostgo'y) kishi", dedi. Men: "Bishr ibn Horis (a.r.) haqida qanday fikrdasiz?", deb yana so'radim. Hizr (a.s.): "U shunday kishiki, undan keyin unga o'xshashi yaratilmaydi", dedi. Men: "Qaysi vasila sababli siz bilan ko'rishib turibman?", deb so'radim. Hizr (a.s.): "Onangning barakasi tufayli", deb javob berdi *(Alloma Shayx Muhammad Abdurahmon Saxoviy, 1985:46)*

Ehson va qiz tarbiyasi. Islom dinida ayollarga, xususan, qiz farzandlarga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Oisha (r.h.)dan rivoyat qilingan hadisda shunday deyilgan: "Yonimga bir ayol ikki qizini yetaklab keldi va mendan biror yegulik so'radi. Bisotimda bir dona xurmodan boshqa hech narsa yo'q edi. Uni ayolga berdim. Ayol xurmoni ikkiga bo'lib, qizlariga berdi. So'ng ayol o'rnidan turib, chiqib ketdi. Shu orada Rasulullоh (s.a.v.) kirib qoldilar. Men U zotga bo'lgan voqeani so'zlab berdim. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): "Kimda ushbu qizlardan birortasi bo'lsa va ularga go'zal odob bersa, qizlari u uchun do'zaxdan parda bo'ladi", dedilar *(Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, 1999:1049; Muslim ibn Hajjoj, 2005:1168)*. Shuningdek, Oisha (r.h.)dan rivoyat qilingan mazkur hadisning quyidagicha lafzlari ham bor: "Men mazkur ayolga uch dona xurmo berdim. U ikkitasini qizlariga berib, birini og'ziga olib borgan edi. Qizlari onasidan yana xurmo so'rashdi. Shunda ayol o'z xurmosini ham qizlariga bo'lib berdi. Men ayolning bu ishidan hayratga tushdim va Rasulullоh (s.a.v.)ga ayolning qilgan ishlarini aytib berdim. U zot: "Alloh qizlariga qilgan yaxshiligi (ehsoni) uchun ayolga jannatni vojib qildi va uni qizlari tufayli do'zaxdan ozod etdi", dedilar *Muslim ibn Hajjoj, 2005:1168)*.

Ushbu hadisda qiz farzanlardga yaxshilik qilish, ularni nafaqa bilan ta'minlash, ularning ozorlariga sabr qilish va boshqa shu kabi ezgu amallar bayon qilingan. Mazkur hadislardagi "go'zal odob bersa" va "qizlariga qilgan yaxshiligi" iboralari ehson ko'rinishlaridan birini anglatadi. Qizlarga ehson qilish deganda ularga ta'lim-tarbiya berish, ularni taom, ichimlik va kiyim bilan ta'minlash, ularni moddiy ehtiyojalarini qondirish, ularga nafaqa berish, bo'yi yetgach turmushga uzatish, ularga kafillik qilish, go'zal odob berish, rahm-shafqat qilish, ular bilan yaxshi munosabatda bo'lish, ularni boshpana bilan ta'minlash kabi amallar tushuniladi. Imom Termiziy (a.r.) rivoyat qilgan hadisda shunday deyilgan: "Qay biringizning uchta qiz farzandi yoki uchta opa-singlisi bo'lsa va ularga ehson qilsa, shubhasiz, jannatga kiradi". Guvohi bo'lganimizdek, islom dinida qiz farzandlarga va opa-singillarga katta imtiyozlar berilgan. Ularning haq-huquqlari o'g'il farzanlardga nisbatan ko'proq ardoqlanadi. Zero, qizlar kasb bilan shug'illanish va mol-davlatni tasarruf qilish kabi mashaqqatli ishlardan ojiz sanaladilar, turmushi buzilsa, otasining uyiga qaytib keladi. Qiz farzandlar o'zi mustaqil hayot kechirishga qodir emaslar. Shu bois islom dini qizlarga mehribon bo'lishga chaqiradi. Ibn Moja (a.r.) Suroqa ibn Molik (r.a.)dan qilgan rivoyatida quyidagilarni o'qish mumkin: "Rasulullоh (s.a.v.) shunday dedilar: "Senga eng afzal sadaqani o'rgataymi? (U) senga qaytib kelgan va sendan boshqa boquvchisi bo'lmagan qizing(ga yaxshilik qilishing)dir" *(Badruddin Ayniy, 2009:155).*

Ammo qiz farzand ko'rishni o'ziga or deb biladigan ayrim musulmonlar ham mavjud. Ular ehsonning

ma’nolarini to‘liq anglaganlarida, qiz farzand or emas, aksincha faxr ekanini tushunib yetgan bo‘lar edilar. Darhaqiqat, qiz farzand jannatga kirish va do‘zaxdan saqlanish uchun ajoyib imkoniyat sanaladi. Lekin bunday imtiyozdan foydalanish uchun qizlarni ehson bilan tarbiya qilish zarur.

Ehson va ayollar huquqi. Sulaymon (a.r.) otasi Amr ibn Ahvas (r.a.)dan quyidagi hasan-sahih hadisni rivoyat qiladi: “Otam Rasulullоh (s.a.v.) bilan birga Vidolashuv hajiga guvoh bo‘lgan. O‘shanda Rasulullоh (s.a.v.) Allohga hamdu sano aytib, va’z va irshod qilganlar. So‘ng bir qissani zikr qilib, shunday deganlar: “Mendan ayollar haqida yaxshi vasiyatni qabul qilib olinglar. Zero, ular qo‘l ostingizdagi asirlardir. Ulardan shundan boshqa hech narsaga egalik qila olmaysizlar. Faqat ayollar ochiq-oydin buzuqlikka yo‘l qo‘ysalar bundan mustasno. Agar ayollar shunday (buzuqlik) qilsalar, ular bilan yotoqni alohida qilinglar va og‘ritmaydigan qilib uringlar. Agar ayollar sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi yo‘l axtarmanglar. Ogoh bo‘ling! Sizlarning ayollaringiz ustida huquqingiz bordir va ayollaringizning sizlar ustingizda huquqlari bordir. Sizlarning ayollaringiz ustidagi huquqingiz shuki, ayollaringiz sizlar yoqtirmagan kimsaning to‘shagingizni bosishiga yo‘l qo‘ymasin va sizlar yoqtirmagan insonning uyingizga kirishiga izn bermasin. Ayollaringizning sizlardagi huquqi esa ularga kiyim va taomda ehson qilishingizdir!” *(Abu Iso Muhammad Termiziy, 1999:282)*

Ushbu hadisda ayollarning ba’zi huquqi bayon qilingan bo‘lib, erkaklar bu huquqlarga rioya qilishda ehson talablari asosida ish tutishlari zarurligi ta’kidlanmoqda. Erkaklar ayollarni kiyim va taom bilan ta’minlashlari lozim. Kiyim va taomda ayollarga ehson qilish deganda ularni kerakli liboslar bilan ta’minlash tushuniladi. Lekin bu borada isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik darkor. Shuningdek, ayollarni och qoladigan darajada qarovsiz qoldirish ham ehson talablariga zid *(Ibn Arabiy, 1995:95)*

Bugungi kunda ishlash uchun chet mamlakatlarga ketib, oilasini, xususan, ayolini qarovsiz qoldirayotgan erkaklar yo‘q emas. Natijada ayollar rizq topish ilinjida turli og‘ir mehnatlarni bajarib, farzand tarbiyasiga vaqt ajrata olmayaptilar. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning kelajagini halokat tuzog‘iga uloqtirmoqda. Agar bu kabi holatlar o‘z holicha tashlab qo‘yilsa, jamiyat tez orada tanazzulga yuz tutadi. Zero, yoshlar jamiyatimiz kelajagi sanaladi. Shu bois Rasulullоh (s.a.v.) bu illatning oldini olish maqsadida ayollarning nafaqasini erkaklar zimmasida ekanini ta’kidlab o‘tmoqdalar. Rasulullоh (s.a.v.) oxirigi vasiyatlari, so‘nggi ta’limotlari va xutba – va’z-nasihatlarida ayollarning huquqlariga alohida urg‘u berdilar. Rasulullоh (s.a.v.)ni sevishni va U zotga ummatlikni da’vo qiladigan har bir musulmon ushbu vasiyatga amal qilishi shart.

Ehson va qo‘shnilar. Xalqimizda “Qo‘shning tinch – sen tinch”, “Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshi” degan hikmatli maqollar bor. Shubhasiz, buning negizida islom dini ta’limotlari yotadi. Zero, qo‘shniga yaxshilik qilish, uning holidan xabar olish va imkon darajasida yordam qo‘lini cho‘zish imonning bir shoxchasi sanaladi. Qo‘shnichilik aloqalarini yaxshilash haqida juda ko‘p hadislar mavjud. Jumladan, Kulsum Xuzo‘iy (r.a.) shunday rivoyat qiladi: “Bir kishi Rasulullоh (s.a.v.)ning huzurlariga kelib: “Yo Rasulullоh (s.a.v.)! Ehson qilganimda ehson qilganimni va yomonlik qilganimda yomonlik qilganimni qanday bilsam bo‘ladi?”, deb so‘radi. Rasulullоh (s.a.v.): “Agar qo‘shnilaring: “Ehson qilding”, deganini eshitsang, ehson qilgan bo‘lasan. Agar ularning: “Yomonlik qilding”, deganini eshitsang, yomonlik qilgan bo‘lasan”, dedilar *(Ibn Moja, 1998:521)* Anas (r.a.)dan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda shunday deyiladi: “Bir kishini tobutda olib o‘tdilar. Odamlar uni maqtab, yaxshi so‘zlar aytishdi. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): “Vojib bo‘ldi”, dedilar. Keyin boshqa bir mayitni olib o‘tishdi. Odamlar uning sha’nisha yomon so‘zlar aytdilar. Janob Rasulullоh (s.a.v.) bu gal ham: “Vojib bo‘lid”, dedilar. Umar ibn Xattob (r.a.) ajablanib: “Nima vojib bo‘ldi?”, dedi. Janob Rasulullоh (s.a.v.): “Bu bandaga yaxshilikni ravo ko‘rib, maqtadingizlar, demak unga jannat vojib bo‘ldi, keyingisiga esa, yomonlikni ravo ko‘rib, yomonladingizlar, demak unga do‘zax vojib bo‘ldi. Sizlar Alloh taoloning yer yuzidagi guvohlarisizlar”, dedilar” *(Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Tarjimon: Shayx Abdulaziz Mansur, 2008:226)* Shubhasiz, aksar hollarda bandaning janozasida qatnashadiganlar uning qo‘shnilari bo‘ladi. Shu bois qo‘shnilarning maqtoviga loyiq bo‘lishga harakat qilmoq darkor.

Demak, islom ta’limotlariga ko‘ra, bandaning muhsin yoki muhsin emasligini qo‘shnilarning bergan bahosiga qarab aniqlab olish mumkin ekan. Qo‘shnilar odatda bir-birlarining holidan ko‘proq xabardor bo‘lib turadilar. Insonning xulqi-atvori, odati va boshqa amallariga ko‘proq uning qo‘shnilari guvoh bo‘ladilar. Shu bois biror kishi haqida ma’lumot olish zarurati tug‘ilganda odatda uning qo‘shnilariga murojaat qilinadi. “Xalqning tili haqning qalami” degan maqol bejizga aytilmagan. Bu va shunga o‘xshash boshqa hadislar insonlarni qo‘shnilariga yaxshi muomalada bo‘lishga chorlaydi. Lekin mazkur baho berayotgan qo‘shnilarda taqvo, ilm, solihlik va boshqa shu kabi ezgu xislatlar jam bo‘lgan bo‘lishi lozim. Buzg‘unchiligi, zolimligi, gunohkorligi kabi xislatlari bilan tanilgan qo‘shnilarning guvohligi o‘tmaydi *(Safo Adaviy, 1999:216)*

Ehson va hayvonlar. Shaddod ibn Avs (r.a.) shunday rivoyat qiladi: “Quyidagi ikki narsani Rasulullоh (s.a.v.) dan eshitib yodlab oldim: “Alloh taolo barcha narsaga ehson qilishni farz qilgan. Agar o‘ldirsangiz, ehson bilan (chiroyli holatda) o‘ldiring. Agar jonliq so‘ysangiz, ehson bilan so‘yin va pichoqning tig‘ini o‘tkirlab oling, jonliqni qiynamang!” *(Muslim ibn Hajjoj, 2005:924)*

Yer yuzidagi barcha narsalar insonga xizmat qilish uchun yaratilgan. Shu jumladan hayvonlar ham. Hayvonlarni qiynash, ularga azob berish islom dinida ta’qiqlangan amallar sirasiga kiradi. Mazkur hadisda hayvonlarga mehr-shafqat ko‘rsatishning bir ko‘rinishi bayon qilingan. Jonliqni so‘yishdan oldin pichoqni yaxshilab o‘tkirlash va so‘yayotgan vaqtda hayvonga ozor bermaslik mazkur hadisda ehson deb atalgan. Pichoqni jonliqqa ko‘rsatmasdan o‘tkirlash, jonliqni so‘yadigan joyga sudramasdan, muloyimlik bilan olib borish – bu ham ehson! Imom Navaviy (a.r.) aytganidek, mazkur hadisda islom dinining asosiy qoidalari jamlangan *(Muhyiddin Navaviy, 2000:90).*

Bu kabi hadislar hayvonlarning huquqlarini saqlash bilan birga aynan insonlarga qaratilgan ogohlantirishdir. Hayvonlargaki bu kabi muomala ta’qiqlangan ekan, Alloh taolo mukarram qilib yaratgan insonga nisbatan shak-shubhasiz, bunday munosabatlar ta’qiqlangandir. Lekin ming afsuski, bugungi kunda dunyoning turli xil mintaqalarida insonlarga nisbatan sodir bo‘layotgan xunrezliklar: ularni tiriklay olovda yoqishlar, tana a’zolarini bo‘lak-bo‘lak qilib, qo‘rqinchli suratda qatl qilayotganlar muqaddas islom dinining bu ta’limotlaridan xabarlari bormi ekan?!

Ehson va yaxshi gumon. Jobir ibn Adulloh Ansoriy (r.a.) shunday rivoyat qiladi: “Rasulullоh (s.a.v.) vafotlaridan uch kun oldin shunday deganlarini eshitganman: “Sizlardan hech kim Allohga yaxshi (ehson bilan) gumon qilmasdan turib o‘lmasin” *(Muslim ibn Hajjoj, 2005:1293-1294)*

Imom Navaviy (a.r.) mazkur hadisni shunday sharhlaydi: “Olimlarning aytishicha, ushbu hadis umidsizlikka tushmaslik va o‘lim vaqtida Allohning mag‘firatiga umid bog‘lash zarurligini ta’kidlaydi. Alloh haqida yaxshi gumon qilishning ma’nosi shuki, banda “Alloh rahm qiladi, afv etadi” deb o‘ylashi lozim. Sog‘-salomat va omonlik vaqtida bandaning Allohga bo‘lgan qo‘rqinchi va umidi barobar bo‘lishi kerak. Allohdan qo‘rqish deganda gunoh va yomonliklardan tiyilish hamda toat-ibodat va yaxshi amallarni ko‘pytirishga rag‘bat qilish tushuniladi. O‘lim vaqtda bunday holat nodirlashadi, shu bois bunday vaziyatlarda Allohdan umid uzmaslikka chaqirilgan. Zero, hadislarning birida shunday deyilgan: “Har bir banda qanday holatda vafot etsa, shu holatda tiriladi”. Allohga yaxshi gumon qilish Allohga muhtoj bo‘lish va Uning buyruqlariga bo‘ysinish ma’nolarini o‘z ichiga oladi” *(Muhyiddin Navaviy, 2000: 172).*

Mazkur hadisda ehsonning yana bir muhim jihati bayon qilingan. Bandadan nafaqat ehson qoidalari asosida hayot kechirishi, balki hayotining xotimasini ham ehson talablariga muvofiq yakunlashi talab etiladi. Hadisda insonning eng nochor holati aks etgan. O‘lim to‘shagida yotgan odamga hech kim yordam qo‘lini cho‘za olmaydi. Uning umrini uzaytirishga hech kim qodir emas. Bu – nochorlik va muhtojlikning cho‘qqisi! Banda o‘lim yaqinlashganda Allohga naqadar muhtoj ekanini qalban his etadi. Bunday holatda banda aslo umidsizlikka tushmasligi lozim. Balki Allohning kechirimli va mag‘firatli zot ekaniga ishonib, Uning marhamati va afviga umid bog‘lashi kerak. Ammo Alloh haqida yaxshi gumon qilish faqat umid qilish bilan cheklanmaydi. Balki banda umid qilish bilan birga Allohning g‘azabidan qo‘rqishi ham lozim. Umid va qo‘rqinch – banda hayoti davomida amal qilishi kerak bo‘lgan ishlardan sanaladi. Ba’zi olimlarning ta’kidlashicha, bandada o‘limga qadar Allohdan qo‘rqish hissi ustun bo‘lishi lozim, o‘lim alomatlari sezilgach, bandada Allohning marhamatiga bo‘lgan umid ortadi.

XULOSA

Hadisi shariflarda ehson va uning sohalari haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Yuqoridagi hadislarda ehsonning eng muhim va mashhur sohalari haqida qisqacha ma’lumot berildi. Ulardan quyidagi bir qancha xulosalar kelib chiqadi:

1. Ehsonning ikki maqomi mavjud: 1) Mushohada maqomi. Bu holatda banda Allohni ko‘rib turgandek holatga tusha oladi; 2) Muroqaba maqomi. Bu holatda banda Allohning kuzatib turganini doim yodda saqlaydi.

2. Ehsonning uch darajalari sanaladi: birinchi maqomi ibodatning durustligi uchun shart; qolgan ikki maqom esa xoslarning darajalari bo‘lib, boshqalar uchun uzrli hisoblanadi.

3. Hadislarda insonlar ota-onaga, qiziga, qo‘shnilarga, qarindoshlarga xossatan, ayollarga ehson maqomida muomila qilishga chaqiradi.

4. Hadislar hayvonlarning huquqlarini saqlashga chorlash asosida insonlarga qaratilgan ogohlantiradi.

Bir so‘z bildan aytganda, ehson insonga aloqador bo‘lgan barcha sohalarni: shaxsiy, ijtimoiy va xalqaro sohalarni o‘z ichiga oladi. Ehson nafaqat inson, balki hayvonot, nabotot va butun borliq bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarga ham aloqador sanaladi. Shuning uchun Alloh taolo har bir ish va amalni ehson bilan bajarishga buyurgan. Ushbu maqola hadislardada bayon qilingan sohalari, ma’nolari va maqsadlari keng yoritilib, shu orqali insonlarga ehson haqida to‘liq va to‘g‘ri tushuncha berishga harakat qilindi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий /Таржимон: Шайх Абдулазиз Мансур. Саҳиҳи Бухорий.– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт: Ислом ва иймон. Ж.2. – Тошкент: Шарқ, 2008.
3. أبو عبد الله ابن ماجة. سنن ابن ماجة. ج.3. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1998.
4. أبو عيسى محمد الترمذي. جامع الترمذي. – الرياض: دار السلام، 1999.
5. العلامة الشيخ محمد عبد الرحمن السخاوي. المقاصد الحسنة في بيان كثير من الأحاديث المشتهرة على الألسنة. – بيروت: دار الكتاب العربي، 1985.
6. بدر الدين العيني. عمدة القاري – شرح صحيح البخاري. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2009.
7. حافظ أبو اللو مباركفوري. تحفة الأحوازى بشرح جامع الترمذي. ج.10. – القاهرة: دار الحديث، 2001.
8. ابن عربي. عريضة الأحوازى بشرح جامع الترمذي. ج.3. – بيروت: دار الفكر، 1995.
9. ابن حجر العسقلاني. فتح الباري – شرح صحيح البخاري. – دار السلام، 2000.
10. ابن منظور. لسان العرب. – بيروت: دار صادر، 1997.
11. ابن ماجة. سنن ابن ماجة. ج.4. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1998.
12. مجد الدين فيروز أبادي. القاموس المحيط. ج.4. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2009.
13. محمد بن إسماعيل البخاري. الأدب المفرد. – دمشق: دار القلم، 2001.
14. محمد بن إسماعيل البخاري. صحيح البخاري. – دمشق: دار الفيحاء، 1999.
15. محمد تقي عثماني. تكملة فتح الملهم بشرح صحيح الإمام مسلم. ج.3. – دمشق: دار القلم، 2006.
16. محيي الدين النووي. شرح صحيح مسلم. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2000.
17. مولا علي قاري. مرقاة المفاتيح – شرح مشكاة المصابيح. ج.9. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2001.
18. مسلم بن حجاج. صحيح مسلم. – بيروت: دار المعرفة، 2005.
19. صفا أدوي. إهدى الديباجة بشرح سنن ابن ماجة. ج.5. – بآء: دار اليقين، 1999.
20. شيخ شبر أحمد عثماني. فتح الملهم بشرح صحيح الإمام مسلم. – دمشق: دار القلم، 2006.

REFERENCES

1. Muḥammad ibn Ismāʿīl al-Buḫārī. (2008) Tarǧimān: Šayḫ ʿAbd al-ʿAzīz Manṣūr. Ṣaḥīḥi Buḫārī. – Toškent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Šayḫ Muḥammad Ṣādiq Muḥammad Yūsuf. (2008) Ḥadīs va ḥayot: Islām va īmān. Ǧ.2. – Toškent: Šarq.
3. Abū ʿAbd Allāh Ibn Māǧa. (1998) Sunan Ibn Māǧa. Ǧ.3. – Bayrūt: Dār al-kutub al-ʿilmīya.
4. Abū ʿĪsā Muḥammad at-Tirmiḏī. (1999) Ǧāmiʿ at-Tirmiḏī. – ar-Riyāḍ: Dār as-salām.
5. al-ʿAllāma aš-Šayḫ Muḥammad ʿAbd ar-Raḥmān as-Saḫāwī. (1985) al-Maqāṣid al-ḥasana fī bayān kaṯīr min al-aḥādīṯ al-muštahara ʿalā al-alsina. – Bayrūt: Dār al-kitāb al-ʿarabī.
6. Badr ad-Dīn al-ʿAynī. (2009)ʿUmdat al-qārī – Šarḥ Ṣaḥīḥ al-Buḫārī. – Bayrūt: Dār al-kutub al-ʿilmīya.
7. Ḥāfiẓ Abū l-Luʾluʾ Mubārakfūrī. (2001) Tuḥfat al-aḥwāḏī bi-šarḥ Ǧāmiʿ at-Tirmiḏī. Ǧ.10. – al-Qāhira: Dār al-ḥadīṯ.
8. Ibn ʿArabī (1995) ʿArīḍat al-aḥwāḏī bi-šarḥ Ǧāmiʿ at-Tirmiḏī. Ǧ.3. – Bayrūt: Dār al-fikr.
9. Ibn Ḥaǧar al-ʿAsqalānī. (2000) Fatḥ al-bārī – Šarḥ Ṣaḥīḥ al-Buḫārī. – Dār as-salām.
10. Ibn Manẓūr. Lisān al-ʿarab. – Bayrūt: Dār Ṣādir, 1997.
11. Ibn Māǧa. (1998) Sunan Ibn Māǧa. Ǧ.4. – Bayrūt: Dār al-kutub al-ʿilmīya.
12. Maǧd ad-Dīn Fīrūzābādī. (2009) al-Qāmūs al-muḥīṭ. Ǧ.4. – Bayrūt: Dār al-kutub al-ʿilmīya.
13. Muḥammad ibn Ismāʿīl al-Buḫārī. (2001) al-Adab al-mufrad. – Dimašq: Dār al-qalam.
14. Muḥammad ibn Ismāʿīl al-Buḫārī. (1999) Ṣaḥīḥ al-Buḫārī. – Dimašq: Dār al-fayḥāʾ.
15. Muḥammad Taqī ʿUṯmānī. (2006) Takmila Fatḥ al-mulhim bi-šarḥ Ṣaḥīḥ al-Imām Muslim. Ǧ.3. – Dimašq: Dār al-qalam.
16. Muḥyī d-Dīn an-Nawawī. (2000) Šarḥ Ṣaḥīḥ Muslim. – Bayrūt: Dār al-kutub al-ʿilmīya.
17. Mullā ʿAlī al-Qārī. (2001) Mirqāt al-mafātīḥ – Šarḥ Miškāt al-maṣābīḥ. Ǧ.9. – Bayrūt: Dār al-kutub al-ʿilmīya.
18. Muslim ibn Ḥaǧǧāǧ. (2005) Ṣaḥīḥ Muslim. – Bayrūt: Dār al-maʿrifa.
19. Ṣafā ʿAdawī. (1999) Ihdāʾ ad-dībāǧa bi-šarḥ Sunan Ibn Māǧa. Ǧ.5. – Imārāt: Dār al-yaqīn.
20. Šayḫ Šabbīr Aḥmad ʿUṯmānī. (2006) Fatḥ al-mulhim bi-šarḥ Ṣaḥīḥ al-Imām Muslim. – Dimašq: Dār al-qalam.